100.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi PF–5-son Farmoniga asosan chiqindi xizmatlari uchun qarzdorlik to‘g‘risida oldindan ogohlantirilgandan keyin to‘lovlar amalga oshirilmagan taqdirda qarzdorlik bartaraf etilmagunga qadar ularning elektr energiyasi uchun to‘lovlarini qabul qilishni vaqtinchalik cheklash amaliyotini joriy etish.	2025-yil I-yarim yillik	Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi
101.	Aholiga qulaylik yaratish maqsadida “Toza makon” billing tizimining mobil ilovasini ishga tushirish va uni takomillashtirib borish.	2025-yil I-yarim yillik	Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi

ASLIGA TO‘G‘RI

T/r	Tadbir	Muddat	Mas'ul ijrochilar
<b>O'rmon xo'jaligi sohasida</b>			
102.	Respublikada o'rmon bilan qoplangan maydonlarni hajmini 4,1 mln gektarga yetkazish choralarini ko'rish.	2025-yil mart-aprel	O'rmon xo'jaligi agentligi
103.	Respublikada yashillikni ko'paytirish maqsadida o'rmonlar barpo etish.	2025-yil mart-aprel	O'rmon xo'jaligi agentligi
104.	Orolbo'yi mintaqasida ekologik muhitni yaxshilash maqsadida "yashil qoplama"lar barpo etish.	2025-yil fevral-mart	O'rmon xo'jaligi agentligi
105.	O'rmon xo'jaliklari tomonidan ko'kalamzorlashtirish maqsadida nihol va ko'chatlar yetishtirish uchun daraxt va butalarning urug'larini jamg'arish	2025-yil iyun	O'rmon xo'jaligi agentligi
106.	O'rmonchilik tadbirlari va hududlarni ko'kalamzorlashtirish maqsadida nihol va ko'chatlarni yetishtirish.	2025-yil mart-iyun	O'rmon xo'jaligi agentligi
107.	O'rmon fondi yerlarida qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan yer maydonlarni foydalanishga kiritish.	2025-yil mart-iyun	O'rmon xo'jaligi agentligi
108.	O'rmon yer fondida bo'sh turgan yer uchastkalarini jismoniy va yuridik shaxslarga "E-auksion" platformasi orqali ijaraga berish	2025-yil I-yarim yillik	O'rmon xo'jaligi agentligi
109.	Yerlarni erozidan va meloratsiya obyektlarini qum ko'chishidan saqlash uchun himoya o'rmonzorlari barpo etish	2025-yil mart-aprel	O'rmon xo'jaligi agentligi
110.	O'rmon xo'jaliklarida xususiy sektor subyektlari bilan birgalikda chorva, parranda va asalari boqishni yo'lga qo'yish	2025-yil mart-iyun	O'rmon xo'jaligi agentligi
111.	O'rmon fondi yerlarida dorivor va ozuqabop o'simliklarning plantatsiyalarini barpo etish.	2025-yil mart-iyun	O'rmon xo'jaligi agentligi
112.	O'rmon xo'jaliklarida o'rmon zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashish hamda o'rmon yong'inlarni oldini olish.	2025-yil mart-aprel	O'rmon xo'jaligi agentligi

ASLIGA TO'G'RI

T/r	Tadbir	Muddat	Mas'ul ijrochilar
<b>Turizm sohasida</b>			
113.	2025 - 2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish Strategiyasini ishlab chiqish. Yil davomida xar bir hududning 2025 - 2030-yillarga mo'ljallangan turizm sohasini rivojlantirish Strategiyalarini ishlab chiqish.	2025-yil fevral	Turizm qo'mitasi
114.	O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyoohlар sonini oshirish "Mehmonxona – transport – tur-operator – savdo va servis" korxonalari kooperatsiya asosida faoliyat yuritadigan 30 ta yirik turizm klaster (majmua)larini tashkil etish.	2025-yil yanvar	Turizm qo'mitasi
115.	O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyoohlар sonini oshirish hududlarda 4 mingta yangi mehmonxona, mehmon uylari va xostellar tashkil etish.	2025-yil yanvar	Turizm qo'mitasi
116.	Mahalliy va xorijiy investorlarning takliflari asosida To'dako'l suv havzasining investitsiyaviy va turistik salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha quyidagi modellardan birini tanlash va 2025–2026-yillarda amalga oshirish yuzasidan qaror loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil mart	Turizm qo'mitasi
117.	Qashqadaryo viloyatining Miraki va G'elon tajribasi asosida "Shohimardon" va "Yordon" qishloqlari, Avval va Vodil shaharchalarida turizmni rivojlantirish bo'yicha "master-reja" ishlab chiqish.	2025-yil aprel	Turizm qo'mitasi
118.	Germaniyalik hamkorlar bilan birgalikda Shahrisabz tajribasi asosida Chust, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy va Chortoq tumanlarida tog' turizmini rivojlantirish bo'yicha "master-reja"ni ishlab chiqish.	2025-yil aprel	Turizm qo'mitasi
119.	Orolbo'yi mintaqasining turli hududlarida turistlarga qulayliklar yaratish uchun maqsadli ekoturizm marshrutlar xaritasini ishlab chiqish va hududning turli nuqtalarida ekolagerlar va ekomarshrutlar tashkil etish hamda zarur infratuzilmani yaratish.	2025-yil fevral	Turizm qo'mitasi
120.	Tog'li, shifobaxsh balchiq qatlamlari bor hamda shifobaxsh suvlar qatoriga kiritilgan va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik suv (termal suv) obyektlari mavjud bo'lgan hududlarda sanatoriyl-kurort zonalarini tashkil qilish.	2025-yil fevral	Turizm qo'mitasi
121.	Toshkent viloyatining Parkent, Bo'stonliq, Ohangaron tumanlari va Angren shahrida turizm infratuzilmasini jalal rivojlantirish ishlarini tashkil etish.	2025-yil	Turizm qo'mitasi

ASLIGA TO'G'RI

T/r	Tadbir	Muddat	Mas'ul ijrochilar
		I-yarim yillik	
122.	Uzumchilik sohasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish. Bunda, Ilg'or xorijiy mamlakatlar, jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Chili, Turkiya, Italiya va boshqa mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.	2025-yil may	Turizm qo'mitasi
123.	"O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" shiori ostida ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish.	2025-yil I-yarim yillik	Turizm qo'mitasi
124.	Turkiy davlatlar tashkilotining veb-portalida "Tabarruk ziyorat" turizm platformasini ishlab chiqish.	2025-yil fevral	Turizm qo'mitasi
125.	"Ichki turizm oyligi", "Ichki turizm haftaligi" hamda "Ichki turizm kunlari"ni tashkil etish va o'tkazish.	2025-yil mart	Turizm qo'mitasi
126.	Xorijiy va mahalliy turistlarga hunarmandchilik mahsulotlarini keng targ'ib qilish maqsadida yirik mehmonxonalarda hunarmandchilik mahsulotlarini sotish shourumlarini tashkil qilish.	2025-yil I-yarim yillik	Turizm qo'mitasi
127.	Samarqandni "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali, kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 barobarga oshirish. Turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta'minlash.	2025-yil I-yarim yillik	Turizm qo'mitasi
128.	Turizm va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi 900 nafar soha xodimlari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish.	2025-yil I-yarim yillik	Turizm qo'mitasi

#### Ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar

129.	Ekologiyaga oid qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish va ixchamlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida jamoatchilik nazoratining roli va ta'sirini oshirish, bioxilmassallikni asrash, tiklash va ko'paytirishning aniq mexanizmlari va rag'batlantirish tizimini joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilishda davlat tashkilotlari va fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilash, ekologik nazorat va monitoring turlarini amalga oshirish tartibi, shu jumladan "yashil iqtisodiyotni" rag'batlantirish tartibini belgilovchi O'zbekiston Respublikasining <b>Ekologik kodeksi</b> loyihasininining birlamchi loyihasini	2025-yil iyun	Strategik rejalashtirish, metodologiya va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish yig'ma axborot-tahlil boshqarmasi
------	---	------------------	--

ASLIGA TO'G'RI



T/r	Tadbir	Muddat	Mas'ul ijrochilar
	ishlab chiqish.		
130.	<b>Yer, suv, yer osti boyliklari va hayvonot dunyosidan foydalanish</b> hamda ularni muhofaza qilish bilan bog'liq o'rmonlardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida <b>O'zbekiston Respublikasining O'rmon kodeksining birlamchi loyihasini ishlab chiqish.</b>	2025-yil iyun	O'rmon xo'jaligi agentligi
131.	Tabiatni muhofaza qilish obyektlari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kategoriyalari ro'yxatini tartibga solish, tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish bo'yicha mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa mutasaddi tuzilmalarining vakolatlari va mas'uliyatlarini tartibga solish, maqsadida O'zbekiston Respublikasining " <b>Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida</b> "gi Qonunini yangi tahrirda qabul qilish.	2025-yil iyun	Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi, Yuridik ta'minlash va tartibga solish ta'sirini baholash boshqarmasi
132.	Tuproqning unumdon qatlamini saqlash, yashil hududlarni asrash, suv resurslaridan samarasiz foydalanish va isrofgarchilikka barham berish maqsadida ma'muriy javobgarlikni keskin kuchaytirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining " <b>Ma'muriy javobgarlik to'g'risida</b> "gi Kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.	2025-yil iyun	Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi
133.	Insonlarning qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lishi bo'yicha huquqini ta'minlash uchun atrof-muhit monitoringi sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi " <b>Atrof-muhit monitoringi to'g'risida</b> "gi yangi Qonunning dastlabki loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Atrof-muhit monitoringi, iqlim o'zgarishiga moslashish va gidrometeorologiya sohasini muvofiqlashtirish bo'limi
134.	<b>"Iqlim o'zgarishi to'g'risida"</b> qonunning dastlabki loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Iqlim o'zgarishi milliy markazi
135.	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida "Yashil" iqtisodiyotni ta'minlashning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan <b>Yangi tahrirdagi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"</b> gi O'zbekiston Respublikasi Qonunni qabul qilish.	2025-yil aprel	Davlat ekologik ekspertizasi markazi
136.	O'zbekiston Respublikasining " <b>O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida</b> "gi Qonuning yangi tahririning dastlabki loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Bioxilmaxillik siyosatini yuritish bo'limi
137.	O'zbekiston Respublikasining " <b>Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida</b> "gi Qonunining yangi tahririning dastlabki loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil	Bioxilmaxillik siyosatini yuritish

ASLIGA TO'G'RI  


T/r	Tadbir	Muddat	Mas'ul ijrochilar
	foydalaniш to'g'risida"gi Qonuning yangi tahririning dastlabki loyihasini ishlab chiqish.	iyun	bo'limi
138.	O'zbekiston Respublikasining "Ov va ov xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuning yangi tahriri loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Ekoturizm va ovchilikni rivojlantirish departamenti
139.	Chiqindilarni qayta ishlash va undan mahsulot ishlab chiqish hamda chiqindilarni termik usulda qayta ishlash hisobiga muqobil energiya ishlab chiqarish korxonalarini rag'batlantirishni va chiqindilarni utilizasiya qilish orqali ishlab chiqariladigan elektr energiyasi qayta tiklanuvchi energiyaga tenglashtirilishini nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil aprel	Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish boshqarmasi, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi
140.	O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuning yangi tahriri loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Atmosfera havosi muhofazasini ta'minlash bo'limi
141.	<b>Chiqindilarni boshqarish sohasidagi</b> davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va tamoyillari, boshqaruv organlari vakolatlari, sanitarnozalash korxonalarining huquqiy maqomi, <b>davlat-xususiy sheriklik mexanizmi belgilash</b> hamda sohada jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyati yaratish bilan birgalikda <b>qattiq maishiy chiqindilarni yig'ish, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish va qayta ishlash</b> tizimini rag'batlantirishga qaratilgan " <b>Chiqindilar to'g'risida"gi Qonunning</b> yangi loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish boshqarmasi, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi
142.	Huquqiy savodxonlik va ekologik madaniyatni oshirish borasida aholi va yuridik shaxslar bilan ishlar ko'lamenti kengaytirish hamda xabardorligini oshirish maqsadida <b>2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish yuzasidan</b> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini belgilangan tartibda kiritish.	2025-yil mart	Ekologik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi
143.	<b>O'rmon xo'jaligi sohasini tranfarmasiya</b> qilish to'g'risidagi normativ hujjat loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil aprel	O'rmon xo'jaligi agentligi
144.	"Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I va II toifalariga kiruvchi sanoat korxonalarining atrof tabiiy muhitga ta'sirini kamaytirish bo'yicha sa'y-harakatlarni rag'batlantirish tizimini joriy qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar	2025-yil iyun	Atrof-muhit monitoringi, iqlim o'zgarishiga moslashish va gidrometeorologiya sohasini muvofiqlashtirish bo'limi

ASLIGA TO'G'RI

T/r	Tadbir	Muddat	Mas'ul ijrochilar
	<p>Maxkamasi qarori loyihasi . Bunda:</p> <p>1) I va II kategoriya korxonalarning ekologik ishlab chiqarishga o'tishdagi harakatlarini rag'batlantirish tizimini joriy qilish:</p> <p>a) I bosqichda – monitoring stansiyalari o'rnatgan korxonaga: tabiatga zarar etkazish bo'yicha kompensasiya to'lovlaridan shakllangan qarz dorlikdan voz kechish;</p> <p>tabiatga zarar etkazish bo'yicha byudjetga yo'naltiriladigan kompensatsiya to'lovlarining 50 foizigacha bo'lgan qismini ikki yil davomida qaytarish;</p> <p>b) II bosqichda – monitoring stansiyalarini o'rnatgan korxona kelgusida chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalarini o'rnatsa tabiatni ifloslantirganlik bo'yicha byudjetga yo'naltiriladigan kompensasiya to'lovlarining 70 foizigacha bo'lgan qismini ikki yil davomida qaytarish;</p> <p>tabiatga zarar etkazish bo'yicha kompensasiyadan imtiyoz berishni faqat Prezident qarorlari bilan amalga oshirish hamda shu davrgacha berilgan imtiyozlarni bekor qilish; chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalarini ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishni rag'batlantirish uchun bu faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarни mol-mulk va yer solig'idan ozod etish.</p>		
145.	2026 — 2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi dasturi tasdiqlanishini ko'zda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil fevral	Atrof-muhit monitoringi, iqlim o'zgarishiga moslashish va gidrometeorologiya sohasini muvofiqlashtirish bo'limi
146.	"Atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha <b>2025-2035 yillarga mo'ljallangan strategiyani tasdiqlash to'g'risida</b> "gi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Atmosfera havosi muhofazasini ta'minlash bo'limi
147.	"Sanoat va elektron chiqindilarini boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida"gi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish boshqarmasi, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar

ASLIGA TO'G'RI



T/r	Tadbir	Muddat	Mas'ul ijrochilar
			iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi
148.	“O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan iqlim o‘zgarishi bo‘yicha yagona Milliy strategiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining dastlabki loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Iqlim o‘zgarishi milliy markazi
149.	O‘zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi hamda davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesish, ko‘chirib o‘tkazish bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlaridan faqat qonun bilan ozod qilish mexanizmlarini joriy qilish hamda shu paytgacha berilgan imtiyozlarni bekor qilishni ko‘zda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil aprel	Tushumlarni monitoring qilish va unduruvga qaratish bo‘limi
150.	O‘z tashabbusiga ko‘ra daraxt va butalar ekish ishlarini amalga oshirgan yuridik va jismoniy shaxslarni rag‘batlantirish maqsadida mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berish mexanizmini tasdiqlash to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Bioxilmassallik siyosatini yuritish bo‘limi
151.	“Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesish va ko‘chirib o‘tkazish tizimini tartibga solish to‘g‘risida”gi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish	2025-yil iyun	Bioxilmassallik siyosatini yuritish bo‘limi
152.	“Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish	2025-yil may	Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti
153.	“Yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarni etishtirish bo‘yicha pitomniklar va plantasiyalar davlat hisobini yuritishni takomillashtirish” to‘g‘risidagi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Bioxilmassallik siyosatini yuritish bo‘limi
154.	“Akkumulyatorlar va batareyalar o‘z iste’mol xususiyatlarini yo‘qotganidan keyin hosil bo‘ladigan chiqindilarni yig‘ish, tashish va utilizasiya qilish bilan bog‘liq infratuzilmani tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarorining dastlabki loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish boshqarmasi, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi
155.	“Chang-gaz suv tozalash uskunalarini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish” bo‘yicha Vazirlar Maxkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlashga kiritish. Bugungi kunda chang-gaz tozalash uskunalarning narxi qimmatligi va bu masalada	2025-yil iyun	Atmosfera havosi muhofazasini ta’minlash bo‘limi, Suv, yer resurslari va yer osti

T/r	Tadbir	Muddat	Ma'sul ijrochilar
	qo'llab-quvvatlash choralari etarli emasligi korxonalar atmosferaga tashlanmalarning kamaytirish bo'yicha choralar ko'rishdan manfaatdor emasligiga sabab bo'lmoqda		boyliklarini muhofaza qilish bo'limi
156.	<p>Toshkent shahrida atmosfera havosini yaxshilashni nazarda tutuvchi ““Musaffo havo – 2030” milliy dasturi”ni tasdiqlash” to'g'risidagi Vazirlar Maxkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>Bunda:</p> <p>Toshkent shahri hamda har bir tumanining ekologik master-rejasini ishlab chiqish;</p> <p>“Shahar – piyodalar uchun” shiori asosida jamoat transportiga har tomonlama ustunlik berilishini ta'minlash;</p> <p>Toshkent shahrining diqqatga sazovor ko'chalarini avtotransport vositalaridan holi hududlarga aylantirish;</p> <p>mikroiqlim mo'tadilligini ta'minlash, atmosfera havosi sifatini yaxshilash maqsadida sun'iy suv havzalarini barpo etish.</p>	2025-yil iyun	Atmosfera havosi muhofazasini ta'minlash bo'limi
157.	<p>“Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini texnik jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining dastlabki loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>Bunda:</p> <p>dastlab 213 ta <b>ekologik me'yor va qoidalarni</b> bosqichma-bosqich joriy etish;</p> <p>metallurgiya, kimyo sanoati, qurillish, energetika sohalarida <b>“eng yaxshi maqbul texnologiyalar”</b> prinsiplari asosida texnik jihatdan tartibga solishni joriy etish;</p> <p>suv ifloslanishi oldini olish va suv resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan yangi tahrirdagi normativlarni ishlab chiqish.</p>	2025-yil iyun	Strategik rejorashtirish, metodologiya va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish yig'ma axborot-tahlil boshqarmasi
158.	<p><b>“Sanoat, elektron va tibbiyot chiqindilarini</b> boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>Bunda:</p> <p>sanoat chiqindilari bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini qabul qilish;</p> <p>respublika hududiga import qiluvchilarning “<b>kengaytirilgan majburiyati</b>”</p>	2025-yil iyun	Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish borqarmasi, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotini rivojlantirish agentligi

ASLIGA TO'G'Rİ



T/r	Tadbir	Muddat	Mas'ul ijrochilar
	<p>tizimini joriy etish;</p> <p>      tibbiyat chiqindilarini yig'ish, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish va ko'mib tashlash tizimini tashkil etish hamda zamonaviy infratuzilmani yaratish;</p> <p>      qurilish chiqindilarini bosqichma bosqich saralash, qayta ishslash tizimiñi joriy qilish.</p>		
159.	<p>Respublikaning yuqori tog'li hududlarida qor qoplami zaxirasini zamonaviy texnologiyalar, jumladan sun'iy yo'dosh yordamida kuzatib borish, baland tog' hududlaridagi daryo havzalariga qor o'lhash uskunalarini o'rnatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining <b>"Gidrometeorologiya xizmati infratuzilmasini rivojlantirish va monitoring yuritish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"</b>gi qarorining dastlabki loyihasini ishlab chiqish. Bunda:</p> <p>      tog'li hududlarda qor qoplami, qalinligi, zichligi, erish jarayonlarini tahlil qilish orqali tog' oldi va tog'li hududlarda suv-toshqinlari yuz berish ehtimoli mavjudligini prognoz qilish;</p> <p>      olinayotgan ma'lumotlarni O'zgidrometning yagona geoaxborot ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilish, vizuallashtirish;</p> <p>      rasmiy veb-saytlarda real vaqt rejimida ma'lumotlarni muntazam yangilab borish bilan davlat organlari va keng jamoatchilikka axborot etkazish ko'zda tutiladi.</p>	2025-yil iyun	Gidrometeorologiya xizmati agentligi
160.	<p>Respublika aeroportlarda havo kemalari orqali amalga oshirilayotgan parvozlar xavfsizligini ta'minlash, O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarini yuqori darajada amalga oshirish, shuningdek stansiyalardan olinayotgan ma'lumotlar sifati va tezkorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining <b>"O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi havo kemalari parvozlarining xavfsizligini meteorologik ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"</b>gi qarorining dastlabki loyihasini ishlab chiqish. Bunda:</p> <p>      <b>2025-2026 yillarda 10 ta</b> aeroportlarda joylashgan avtomatik aviatsiya meteorologiya stansiyalarini yangilash;</p> <p>      parvozlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ko'zda tutish.</p>	2025-yil may	Gidrometeorologiya xizmati agentligi

ASLIGA TO'G'RI



T/r	Tadbir	Muddat	Mas'ul ijrochilar
161.	<p>Davlat xaridlarida "yashil" xaridlarning ulushini doimiy oshirib borish. Bunda: "Yashil" xaridlar ulushini oshirish va rivojlantirish yuzasidan quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish:</p> <p>atrof - muhitga ta'siri kam bo'lgan, ekologik toza yoki ikkilamchi xom ashyo va chiqindilardan tayyorlangan tovarlar ishlab chiqaruvchilariga qulayliklar yaratish;</p> <p>tovarlar ishlab chiqaruvchilar ekotizimini joriy etish.</p> <p>Tadbirkorlik sub'ektlarining davlat xaridlari jarayonidagi faoliyatini inobatga olgan holda baholashning skoring tizimini joriy etish.</p>	2025-yil iyun	Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish boshqarmasi, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi
162.	Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi "Tuproq tarkibi va repozitorysi, sifati tahlil markazi" davlat unitar korxonasini Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tarkibiga o'tkazishni nazarda tutuvchi normativ huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil may	Suv, yer resurslari va yer osti boyliklarini muhofaza qilish bo'limi
163.	Respublikadagi yaylov yerkarni xatlovdan o'tkazib, o'simlik va hayvonot dunyosiga boy bo'lgan hududlarni aniqlasın va ularni o'rmon va muhofaza etiladigan hududlarga qo'shish bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil iyun	O'rmon xo'jaligi agentligi, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti
164.	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi.	2025-yil may	Ekologik ta'lif, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi
165.	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida innovation va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun venchur fondini tashkil qilish yuzasidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish	2025-yil mart	Ekologik ta'lif, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi
166.	Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo'yicha milliy strategiyani tasdiqlash to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatning dastlabki loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Iqlim o'zgarishi milliy markazi
167.	Foydalanish xususiyatini yo'qotgandan so'ng atrof-muhitga zarar etkazuvchi ayrim qadoqlash materiallari va tovarlarini ishlab chiqaruvchi (eksport qilinadigan tovarlar bundan mustasno) hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchilarning "kengaytirilgan majburiyati" tizimini joriy etish.	2025-yil iyun	Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish boshqarmasi, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi

ASLIGA TO'G'RI

T/r	Tadbir	Muddat	Mas'ul ijrochilar
168.	Tokning kimyoviy manbalari (akkumulyator, batareya va boshqalar) ishlab chiqaruvchilariga kengaytirilgan javobgarlikni joriy qilish hamda ularning aylanmasi va chiqindilarini joylashtirishning amaliy nazorat tizimini o'rnatish.	2025-yil aprel	Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish boshqarmasi, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi
169.	Ekologiya va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish choralarini ko'rish.	2025-yil iyun	Strategik rejalashtirish, metodologiya va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish yig'ma axborot-tahlil boshqarmasi
170.	2025-2027 yillarga mo'ljallangan plastik bilan ifloslanishni kamaytirish bo'yicha Milliy dastur loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish boshqarmasi, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi
171.	Yaylovlarning o'simlik va hayvonot dunyosiga boy bo'lgan hududlarga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomini berish to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish	2025-yil iyun	Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti

ASLIGA TO'G'RI